



UDK:950 (576.1)

Xalil MATYAKUBOV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi
E-mail: matyakubovxalil@gmail.com

TDPU professori A.Xazratqulov taqrizi asosida

ACADEMICIAN AKHMADALI ASKAROV AND HIS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGY IN UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the life and scientific work of the scientist, academician Akhmadali Askarov, who made a great contribution to the development of archaeological science in Uzbekistan, as well as the contribution of the Samarkand Institute of Archaeology, founded by him, to the study of the history of our country based on material sources.

Key words: Archaeology, Mahandarin expedition, Zamanbaba culture, Sapalli culture, Sapallitepa, Zharkutan, Afrasiab, Archaeological reserve, Protosity, Vara.

АКАДЕМИК АХМАДАЛИ АСКАРОВ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ АРХЕОЛОГИИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье анализируется жизнь и научная деятельность учёного, академика Ахмадали Аскарова, внесшего большой вклад в развитие археологической науки в Узбекистане, а также вклад основанного им Самаркандского института археологии в изучение истории нашей страны на основе материальных источников.

Ключевые слова: Археология, Махандаринская экспедиция, Культура Заманбаба, Культура Сапалли, Сапаллитепа, Жаркутан, Афрасиаб, Археологический заповедник, Протогород, Вара.

AKADEMIK AHMADALI ASQAROV VA UNING O'ZBEKISTON ARXELOGIYASI RIVOJLANISHIDA TUTGAN O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda arxeologiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shga olim, akademik Ahmadali Asqarovning hayoti va ilmiy faoliyati, hamda u asos solgan Samarqand Arxeologiya institutining mamlakatimiz tarixini moddiy manbalar asosida o'ganilishiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Arxeologiya, Mohandaryo ekspeditsiyasi, Zomonbobo madaniyati, Sopolli madaniyati, Sopollitepa, Jarqo'ton, Afrosiyob, Arxeologik qo'riqsona, Protoshahar, Vara.

Kirish. O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Abu Rayxon Beruniy nomidagi davlat mukofotining lauriyati, tarix fanlari doktori, Ahmadali Asqarov nafaqat mamlakatimizda, balki butun Markaziy Osiyo respublikalari va xorijiy mamlakatlar ilmiy jamoatchiligiga yaxshi tanish bo'lgan arxeolog olimdir. Ahmadali Asqarov birinchi o'zbek arxeologi, akademik Yahyo G'ulomov tomonidan asos solingan o'zbek arxeologiya ilmiy maktabining davomchisi hisoblanadi. Samarqand Arxeologiya instituti asoschisi va uning ko'p yillik rahbari bo'lib ishlagan Ahmadali Asqarov bu yil qutlug' 90 yoshga kiradi. Shu munosabat bilan hukumatimiz tomonidan tasdiqlagan reja asosida respublikamizning qator ilm dargohlarida olimning ko'p yillik ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilishga qaratilgan keng ko'lamli ma'rifiy uchrashuvlar va xalqaro konferensiyalar o'tkazish chora-tadbirlari belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Akademik Ahmadali Asqarovning ilmiy-ijodiy faoliyati doim tadqiqotchi olimlar e'tiborida bo'lib keladi. Sababi olimning ilmiy tadqiqotlar ko'lami juda keng. A.Asqarovning antropogenez jarayonlari, ibtidoiy madaniyat tarixi, tarixni davrlashtirish, bronza davri arxeologiyasi, ilk shaharsozlik va davlatchilik tarixi, o'zbek xalqining etnik shakllanishi masalalariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tahlil qilingan va turli xil baho berilgan.

Mavzuga oid tadqiqotlarni xronologik izchillikda keltiradigan bo'lsak V.Nabokovning "O'zbekiston arxeologlarining buyuk hissasi" maqolasida o'tgan asrning 50-70-yillarida O'zbekiston arxeologlari tomonidan yangi ochib o'rganilgan arxeologik obyektlarning tarixiy ahamiyatiga olim faoliyati misolida baho beriladi[1]. A.Asqarovning do'sti va yaqin safdoshi Y.F.Buryakov "Germaniya arxeologiya institutining xorijiy muxbir a'zosi" deb nomlangan maqolasida qadimgi Baqtriya zaminida faoliyat yuritgan sovet-german

ekspeditsiyasining yutuqlari A.Asqarov ishlari misolida yoritiladi [2]. Mashhur elshunos olim K.Shoniyozov "O'zbekiston ovozi" gazetasida Yahyo G'ulomov va Ahmadali Asqarov o'rtasidagi ustoz-shogird an'anasining davomiyligi haqida so'z yuritadi [3]. A.Asqarovning 60 yilligi munosabati bilan katta shogirdlari tomonidan "Akademik Ahmadali Asqarov va uning hayot yo'li" nomli risolada olimning 35 yillik ilmiy faoliyati yoritib beriladi [4]. A.Asqarov biografiyasi nisbatan to'laqonli yoritilgan ish akademik A.P.Qayumov tomonidan e'lon qilingan bo'lib, unda asosan olimning ko'proq shaxsiy hayoti, yaqin hammaslak do'stlari bilan suhbatlardagi qimmatli ma'lumotlar keltiriladi [5]. Shoir Xushvaqt Rahim A.Asqarovning Surxon vohasi qadimgi tarixini tiklash borasidagi ulkan mehnatlaridan ilxomlanib olim hayot yo'lini she'riy uslubda bayon etadi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Ahmadali Asqarov nafaqat tashkilotchi rahbar, balki haqiqiy fan zahmatkashlaridan biridir. U Buxoro, Qarshi-Surxon cho'llarida, Toshkent va Farg'ona vohalaridan tortib to uzoq Sibir kengliklarigacha bo'lgan hududlarda ko'plab arxeologik izlanishlar o'tkazgan fidoiy tadqiqotchi hamdir. Uning ko'p yillik ilmiy izlanishlari 18 ta monografik asarlar, 500 dan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop ishlarda o'z aksini topgan. Ularning 50 dan ortig'i xorijiy mamlakatlarda (ingliz, fransuz, nemis, yapon, fors, va xitoy tillarida), 200 dan ortiq ishlari rus tilida chop etilgan. 2 ta o'quv qo'llanmasi, 8 ta o'quv-uslubiy ishlari, 175 ta ilmiy-ommabop maqolalar o'zbek tilida chop etilgan. Olim tomonidan yaratilgan ana shu boy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda tarixiylik, ilmiy xolislik va obyektivlik tamoyillariga amal qilish juda muhim. A.Asqarov tomonidan e'lon qilingan ishlarni tahlil qilishda tarixiy-falsafiy uslublardan, ya'ni analiz va sintez, tizimlashtirish hamda xronologik izchillikka amal qilish, qiyosiy solishtirish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston tarixining yetuk olimi, taniqli arxeolog Ahmadali Asqarov 1935-yil 25-sentabrda

Namangan viloyatining Norin tumani, Uchtepa qishlog'ida, oddiy mehnatkash dehqon oilasida tug'ilgan. O'rta maktabda tarix fani o'qituvchisi va ilk ustozi Do'stmuhammedovdan olgan saboqlari yosh Ahmadali qalbida kelajakda tarixchi bo'lish orzularini uyg'otdi [7].

1957-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutini imtiyozli diplom bilan tugatgan Ahmadali Asqarov o'zi o'qigan Norin tumanidagi 4-o'rta maktabda tarix fani o'qituvchisi sifatida mehnat faoliyatini boshladi. Maktabdagi pedagoglik faoliyatining birinchi yilidayoq kelajakda undan yaxshi partiya xodimi chiqishini aytib Norin tumani partiya qo'mitasining sarkotibi tavsiyasi bilan A.Asqarov Toshkentga O'zbekiston partiya Markaziy Komiteti qoshidagi 3 oylik targ'ibotchilar tayyorlanadigan kursga o'qishga yuboriladi. 1958-yilning yozida partiya propogandistlar kursida o'qib yurgan yosh mutaxassis tasodifiy tramvayda talabalik yillaridagi ustozi Yahyo G'ulomovni uchratib qoladi. Y.G'ulomov tashabbusi bilan 1958-yilning avgust oyida aspiranturaga kirish imtixonlarini muvaffaqiyatli topshirgan A.Asqarov 1-oktabrdan O'zFA Tarix va arxeologiya instituti aspiranturasiga qabul qilinadi.

Respublikamizda yuqori malakali milliy kadrlarga bo'lgan ehtiyojni chuqur anglab yetgan O'zbekiston Fanlar Akademiyasi prezidenti H.M.Abdullayevning sai-harakatlari va akademik Y.G'ulomov tavsiyasi bilan A.Asqarov Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) shahrida joylashgan SSSR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutiga aspiranturada o'qishga yuboriladi. Taniqli arxeolog olim, professor M.P.Gryaznovning yosh aspirantga ilmiy rahbar etib belgilanadi. Shogirdi tirishqoqligidan ko'ngli to'lgan olim uni o'z oilasining bir bo'lagi sifatida qabul qilib, har tomonlama g'amxo'rlik ko'rsatdi.

Aspirantura tahsil davomida har yil bahor mavsumida ustozi Y.G'ulomov bilan ikki oy O'zbekistonda (Mohandaryo ekspeditsiyasi), yoz oylarida 2-3 oy M.P.Gryaznov bilan Sibir va Qozog'iston dashtlarida, shuningdek taniqli arxeolog V.M.Masson bilan Janubiy Turkmanistonda, bronzashunos V.I.Sarianidi bilan Afg'onistonda olib borilgan arxeologik ekspeditsiyalarda ishtirok etgan A.Asqarov nazariy bilimlarini dala amaliyotlari bilan mustahkamlab bordi. Ushbu ekspeditsiyalar kelajakda bo'lajak olim uchun katta bir ilmiy tajriba maktabi rolini o'tadi.

Ma'lumki, birinchi o'zbek arxeologi Y.G'ulomov o'tgan asrning 40-50-yillarida quyi Amudaryo havzalarida arxeologik tadqiqotlar o'tkazib, 1957-yilda ko'p yillik izlanishlari xosilasi sifatida "Qadimgi Xorazmning sug'orilish tarixi" deb nomlangan fundamental asarni e'lon qildi [8]. 1950-yilda Y.G'ulomov Buxoro vohasining shimoliy-g'arbiy Qizilqum sahrosiga tutash hududlarida dastlabki arxeologik ekspeditsiya tashkil qildi. 1950-1956-yillarda olib borilgan tadqiqotlar ushbu hudud qadimgi Xorazmdan boy madaniyatga ega ekanligini ko'rsatdi va bu fanga "Zomonbobo madaniyati" nomi bilan kirdi [9]. Y.G'ulomov "Zomonbobo madaniyati" yodgorliklarini o'rganish ishini iqtidorli shogirdlaridan biri bo'lgan A.Asqarovga topshirdi.

Akademik Y.G'ulomov asos solgan arxeologiya maktabining izchil davomchisi sifatida A.Asqarov M.P.Grayaznov ilmiy rahbarligida quyi Zarafshon hududlarida olib borilgan bir necha yillik arxeologik tadqiqotlar natijasida 1963-yil Sankt-Peterburg (Leningrad) shahrida "Bronza davrida quyi Zarafshon" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi [10]. Olimning 1950-60-yillarda olib borgan izlanishlari mahsuli sifatida keyinchalik hammualliflikda "Ibtidoiy madaniyat va Zarafshon etaklarida sug'orma dehqonchilikning vujudga kelishi" deb nomlangan monografiya e'lon qilindi [11]. Ushbu asarda O'rta Osiyoda bronza asrida cho'l-dasht zonasida yashagan ibtidoiy aholi xo'jaligining ikki xil yo'nalishda rivojlanishi xususiyatlari, xronologik bosqichlari moddiy madaniyat, uy-joy qurilishi va dafn tartiblari misolida ilmiy jihatdan chuqur asoslab berildi.

A.Asqarov nomzodlik ishini himoya qilgach dastlab O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix va arxeologiya ilmiy-tadqiqot institutida kichik ilmiy xodim, keyinroq katta ilmiy xodim, 1966-1970-yillarda arxeologiya yo'nalishi bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimlarida ishladi.

1969-yildan boshlab A.Asqarov qadimgi Baqtriya zaminining shimoliy qismi bo'lgan Surxondaryo viloyatida arxeologik qazishmalarni boshladi. Bu yerda asosiy tadqiqot obyekti protoshahar Sopollitepa va ilk shahar Jarqo'ton yodgorliklari bo'ldi. Sopollitepa hamda unga tutash hududlarda Kuchuktepa, Pshaktepa, Bo'ston kabi qadimiy shahar va qishloq xarobalari hamda ko'xna qabristonlarning ochib o'rganilishi natijasida Shimoliy Baqtriya qadimgi Sharq sivilizatsiyasining fanda ilgari noma'lum bo'lgan yangi markazi "Sopolli madaniyati" kashf qilindi. Ushbu madaniyat o'troq dehqonchilik va ilk shahar madaniyatining yangi bir o'chog'i bo'lganligi A.Asqarovning jahon arxeologiyasiga kiritgan olamshumul kashfiyoti edi. "Sopolli madaniyati"ning kelib chiqishi, uning rivojlanish bosqichlari boy faktik materiallar asosida izchil beshta Sopolli, Jarqo'ton, Ko'zali, Mo'lali va Bo'ston xronologik bosqichlardan iboratligi A.Asqarov tomonidan isbotlab berildi [12].

Sopollitepa, Jarqo'ton, Mo'lalitepa, Bo'ston, Bo'yarchi, Nurek, Tandiryo'l kabi yodgorliklarni o'rganish jarayonida topilgan minglab topilmalar O'zbekiston hududida qadimgi dehqonchilik madaniyatining paydo bo'lishi davriy sanasi deyarli 1000 yilga, ipakchilik va paxtachilik tarixi 2000 yilga qadimiylashtirildi. O'zbekistonning ipak va paxtaning ilk vatanlaridan biri ekanligi isbotlandi. Zardushtiylik dinining paydo bo'lishi va shakllanishi janubiy O'zbekiston yodgorliklari misolida tavsiflab berildi.

Surxon vohasida arxeologik tadqiqotlar endi boshlangan paytda O'zbekiston ilm-fani tarixida yana bir muhim voqelik sodir bo'ldi. Gap shundaki, O'zbekistonda ikkinchi jahon urushidan keyin milliy rahbar kadrlar Habib Abdullayev, Yahyo G'ulomov, Ibrohim Mo'minov, Obid Sodiqov va Sharof Rashidovlarning alohida jonbozligi bilan tashabbuslari bilan Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, Qadimgi Sug'd (Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo vohalari), Shimoliy Baqtriya (Surxondaryo) hududlarida ibtidoiy, qadimgi va o'rta asrlarning turli bosqichlariga oid qator yangi arxeologik obyektlar ochib o'rganildi. Bu esa respublikamizdagi ilmiy jihatdan o'rganilishini kutib yotgan qadimiy yodgorliklarni tashkiliy-metodik jihatdan tizimli ravishda o'rganishni taqozo qilar edi.

Fidoiy tarixchi olimlarimizning sai-harakatlari bilan 1970-yilda ko'xna Samarqand shahrida O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tarkibida Arxeologiya instituti tashkil etildi. Nafaqat O'zbekiston balki sobiq ittifoq ilmiy jamoatchiligida tanilib qolgan yosh va talantli olim Ahmadali Asqarov ushbu institutga rahbar etib tayinlandi. Endi A.Asqarov zimmasiga rasmiy hukumat qarori bilan navbatdagi, aytish mumkinki nihoyatda mashaqqatli ish – institutni ilmiy-tashkiliy jihatdan shakllantirish mas'uliyati yuklandi. Qator ma'muriy-xo'jalik, iqtisodiy, maishiy va shaxsiy xarakterdagi sun'iy to'siqlar va qiyinchiliklarga qaramay A.Asqarov bu vazifaning uddasidan chiqdi. Bu esa ustozlar sabog'i va o'gitlari, ularning ma'naviy qo'llab-quvvatlashi hamda olimdagi keng hayotiy tajriba natijasi edi. Shu tariqa olimning 1987-yilgacha bo'lgan faoliyati bevosita Arxeologiya instituti bilan bog'liq bo'ldi.

Arxeologiya institutida A.Asqarovning shaxsiy tashabbusi va jonbozligi bilan yetuk tarixchi-arxeologlar jamoasi shakllantirildi. Arxeologik tadqiqotlar ko'lami yanada kengaydi. Asosiy e'tibor respublikamizning barcha tarixiy-madaniy hududlarida arxeologik ekspeditsiyalar guruxini tashkil etishga qaratildi. 70-yillardan O'zbekistonning turli hududlarida 20 dan ortiq arxeologik ekspeditsiya va ularning maxsus guruxlari faoliyat yuritib boshladi. Ushbu ekspeditsiyalarning sarmahsul faoliyati tufayli O'zbekiston arxeologik xaritasida yuzlab yangi yodgorliklar paydo bo'ldi. Bu esa shubhasiz institut jonkuyar rahbari A.Asqarovning tinimsiz mehnatlari samarasi edi.

Ahmadali Asqarov institutga rahbarlik va tashkilotchilik faoliyati bilan bir vaqtda ilmiy-tadqiqot ishlarini ham izchil davom ettirdi. Shimoliy Baqtriya zaminida olib borilgan keng ko'lami kuzatuvlar, qazishmalar va masshaqqatli izlanishlar mahsuli sifatida 1977-yil 15-aprel sanasida Moskva shahrida SSSR FA Arxeologiya institutida "Janubiy O'zbekiston bronza asrida" (qadimgi Sharq tamadduni mahalliy o'chog'ining tashkil topishi muammosiga doir) mavzusidagi doktorlik ishini himoya qildi [13]. Janubiy O'zbekistonda olib borilgan ko'p yillik

arxeologik tadqiqotlar xulosasi sifatida "Janubiy O'zbekistonda bronza davri qadimgi dehqonchilik madaniyati" deb nomlangan alohida monografiya e'lon qilindi [14].

Samarqand Arxeologiya instituti respublikamizning yetakchi ilmiy tadqiqot markazi bo'lishi bilan bir qatorda butun O'rta Osiyo, sobiq ittifoq va xatto jahon miqyosida tan olingan markaz darajasiga ko'tarildi. Tarixan qisqa muddat ichida mazkur institut qo'shni respublikalar (Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston va Qirg'iziston) uchun ham malakali kadrlar tayyorlovchi ilmiy tadqiqot markaziga aylandi. Institut tashabbusi bilan bir necha marotaba butun ittifoq va xalqaro ko'lamda ilmiy simpoziumlar va konferensiyalar tashkil etildi. Bir so'z bilan aytganda A.Asqarovning tashabbusi va bevosita rahbarligida "Samarqand arxeologiya ilmiy maktabi"ga asos solindi.

Ahmadali Asqarovning tarix faniga olib kirgan yana bir yangiligi Jarqo'ton yodgorligi hisoblanadi. Olimning tadqiqotlar jarayonida topilgan noyob asori-atiqalarni saqlab qolish uchun muzey tashkil etish g'oyasini Sh.Rashidov zo'r qiziqish bilan qo'llab-quvvatlaydi va 1983-yil SHerobod tumani Oqqo'rg'on qishlog'ida barpo etilgan arxeologiya muzeyi (Jarqo'ton muzeyi)ning ochilish marosimida Sh.Rashidov shaxsan ishtirok etadi [15].

A. Asqarov O'zbekistonda ilk shaharsozlik madaniyatini o'rganishda bir qator bronza davri yodgorliklaridan olingan boy arxeologik materiallar ilmiy tahlili asosida O'zbekiston janubida yuksak rivojlangan ilk shahar madaniyati mil. avv. II-ming yillikning birinchi yarmida qadimgi Sharq sivilizatsiyasiga xos

tarixiy sharoitda tarkib topganligi Sopollitepa va Jarqo'ton misolida isbotlandi [16].

Xulosa va takliflar. Ahmadali Asqarov har jabhada halol mehnati tufayli hayotda o'z oldiga qo'ygan barcha ezgu maqsadlariga erishdi. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining birinchi rahbari, mamlakatimizda arxeologiya fanining rivojiga qo'shgan ulkan hissasi va yaratgan ilmiy maktabi inobatga olinib 1984-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi, 1987-yilda esa O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi etib saylandi.

Bundan tashqari A.Asqarov mamlakatimiz ilm-faniga qo'shgan munosib hissasi tufayli Abu Rayxon Beruniy nomidagi davlat mukofotining sovrindori (1985), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1995), xalqaro Turk akademiyasining "Oltin medali" (2016), "El-yurt hurmati" ordeni (2018), Birinchi darajali "Me'nat fahriysi" (2021) ko'krak nishoni O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi (2023) kabi qator orden va oliy unvonlarga sazovor bo'ldi.

Akademik Ahmadali Asqarovning ijtimoiy va ilmiy-pedagogik faoliyati juda keng ko'lamlidir. Olimning o'zbek xalqining kelib chiqishi, arxeologik manbalar asosida ilk zardushtiylik va oriylar muammosi, o'zbek davlatchiligi va uning taraqqiyot bosqichlari masalalari, shuningdek O'zbekistonda tarixchi olimlar va mutaxassis kadrlar tayyorlash hamda ustoz-shogird an'analarini rivojlantirish borasidagi faoliyati alohida tadqiqot mavzulari hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Набоков В. Выдающийся вклад археологов Узбекистана // Ленинская знамя. 1982. 26 октябрь.
2. Буряков Ю.Ф. А.А.Аскарлов – зарубежный член-корреспондент Германского археологического института (ФРГ). ОНУз. 1987. №3. -С.68.
3. Шониезов К. Ворислик // Ўзбекистон овози. 1994. 7 апрел.
4. Ширинов Т., Матбобоев Б. Академик Ахмадали Аскарлов ва унинг хаёт йўли. -Самарқанд. 1995.
5. Каюмов А. Ўзбекистон академиклари. -Тошкент. "Мумтоз сўз". 2011. 249-250-бетлар.
6. Хушвақт Раҳим. Юрак садолари. -Тошкент. 2003.
7. Аскарлов А. Меҳнат ва курашда тобланган хаёт онларим. -Тошкент.: "Донишманд зиёси". 2024. 8-11 бетлар.
8. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. -Ташкент. "Фан". 1957.
9. Аскарлов А. Бухоронинг ибтидоий давр тарихидан лавҳалар. Тошкент., "Фан. 1973. 16-23-бетлар.
10. Аскарлов А. Низовья Зерафшана в эпоху бронзы. Автореф. канд. дисс. -Ленинград. 1962. 19 с.
11. Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскарлов А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. -Ташкент, "Фан", 1966.
12. Аскарлов А.А, Абдуллаев Б.Н. Джаркутан (К проблеме протогородской цивилизации на юге Узбекистана. -Ташкент. "Фан". 1983. С. 32-44.
13. Аскарлов А. Бронзовый век южного Узбекистана (К проблеме развития локальных очагов древневосточной цивилизации). Автореф. докт. дисс. - Москва. 1977. 44 с.
14. Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. "Фан". -Ташкент. 1977. 232 с.
15. Каюмов А. Ўзбекистон академиклари. -Тошкент. "Мумтоз сўз". 2011. 249-250-бетлар
16. Аскарлов А. Энг кадимий шахар. -Тошкент. "Маънавият". 2001. 21-22 б.